



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojss>

THE ROLE OF LEGAL AWARENESS AND CULTURE IN EDUCATING YOUTH IN THE SPIRIT OF THE IDEA OF INDEPENDENCE

Dilfuza Oralbayevna Bekimbetova

Senior Lecturer at the Department of "National Idea Fundamentals of Spirituality and Legal Education" of Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute Nukus, Karakalpakstan

ABOUT ARTICLE

Key words: Youth, idea of independence, ideological education, legal consciousness, legal culture, legal education, rule of law, rule of law, education of a mature personality, awareness of national identity, restoration of historical memory, formation of a sense of national pride and honor.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: The article analyzes the issues of the role and importance of legal consciousness, legal culture, and legal education in educating young people in the spirit of the idea of independence. The role of legal consciousness and legal culture in the upbringing of young people and in the process of building a legal state in Uzbekistan is shown. The legal foundations of the ideological upbringing of young people and its aspects related to state policy are highlighted. The ideological, ideological, and spiritual upbringing of young people is considered as a systematic, legal process. Keywords: Youth, the idea of independence, ideological upbringing, legal consciousness, legal culture, legal upbringing, the rule of law, the rule of law, the upbringing of a mature person, awareness of national identity, restoration of historical memory, formation of a sense of national pride and honor.

YOSHLARNI MUSTAQILLIK G'OYASI RUHIDA TARBIYALASHDA HUQUQIY ONG VA MADANIYATNING O'RNI

Dilfuza Oralbayevna Bekimbetova

"Milliy g'oja, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi"
kafedrasi katta o'qituvchisi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Nukus, Qoraqalpog`iston

MAQOLA HAQIDA

| | | | | |
|-----------------------|----------------------|---------------------|----------|-----------|
| Kalit so'zlar: | Yoshlar, mustaqillik | Annotatsiya: | Maqolada | yoshlarni |
|-----------------------|----------------------|---------------------|----------|-----------|

g‘oyasi, g‘oyaviy tarbiya, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya, qonun ustuvorligi, huquqiy davlat, barkamol inson tarbiyasi, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy g‘urur va iftihor tuyg‘usini shakllantirish.

mustaqillik g‘oyasi ruhida tarbiyalashda huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiyaning tutgan o‘rni va ahamiyati masalalari tahlil qilingan. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yoshlar tarbiyasida, O‘zbekistonda huquqiy davlat qurish jarayonida tutgan o‘rni ko‘rsatilgan. Yoshlar g‘oyaviy tarbiyasining huquqiy asoslari, uning davlat siyosati bilan bog‘liq jihatlari yoritilgan. Yoshlar g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’naviyat tarbiyasi tizimli, qonuniyatli jarayon sifatida ko‘rib o‘tilgan.

РОЛЬ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ И ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ИДЕИ НЕЗАВИСИМОСТИ

Дилфуза Оралбаевна Бекимбетова

Старший преподаватель кафедры

«Национальная идея, основы духовности и правовое образование»

Нукусского государственного педагогического института имени Ажиниёза

Нукус, Каракалпакстан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Молодежь, идея независимости, идеологическое воспитание, правовое сознание, правовая культура, правовое воспитание, верховенство закона, правовое государство, воспитание зрелой личности, осознание национальной идентичности, восстановление исторической памяти, формирование чувства национальной гордости и чести.

Аннотация: В статье анализируются вопросы роли и значения правового сознания, правовой культуры и правового образования в воспитании молодежи в духе идеи независимости. Показана роль правового сознания и правовой культуры в воспитании молодежи и в процессе построения правового государства в Узбекистане. Освещены правовые основы идеологического воспитания молодежи и его аспекты, связанные с государственной политикой. Идейное, идеологическое и духовное воспитание молодежи рассматривается как системный, правовой процесс.

Kirish

O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, yoshlarni mustaqillik g‘oyasi ruhida tarbiyalashda huquqiy ong va huquqiy madaniyat muhim o‘rin tutadi. Yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish huquqiy tarbiya asosida amalga oshiriladi. O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatida, jamiyat hayotida, yoshlar tarbiyasida huquqiy ong va madaniyatning tutgan o‘rni va ahamiyati masalasiga doimo katta e’tibor qaratilib kelinmoqda.

Huquqiy ong deganda kishilarning huquqqa, qonunchilikka, huquq tartibotga va boshqa huquqiy hodisalarga nisbatan bo‘lgan g‘oyalar, his-tuyg‘ular yig‘indisi tushuniladi. Jamiyat hayotida huquqiy ong vujudga kelishi asosida huquqiy madaniyat shakllanadi. Huquqiy madaniyat deganda, kishilarning huquqiy bilim darjasи, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilishi va unga rioya qilishi tushuniladi. Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish, yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va manfaatlariga rioya etish, huquqiy normalarni bajarish, huquqiy talablarni bilish hamda ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga oid barcha masalalar kishilarning huquqiy madaniyati darajasiga bog‘liqdir[1].

Yoshlarni mustaqillik g‘oyasi ruhida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadigan huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya tushunchalariga boshqa ta’riflar ham berilgan bo‘lib, huquqiy ong – huquqshunoslik, falsafa sohalariga oid kategoriya bo‘lib, huquqiy hodisalarni aks ettiruvchi, huquqiy qadriyatlarni anglash, zarur huquqiy tartibni saqlash bilan bog‘liq ijtimoiy guruh va individual ongga mansub tushuncha bo‘lib hisoblanadi. Huquqiy ong jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, uning madaniy-huquqiy, siyosiy shart-sharoitlari bilan tavsiflanadi. Huquqiy madaniyat – kishilarning huquqiy bilim darjasи, huquqqa nisbatan ongli munosabat, huquqni hurmat qilish va unga rioya qilishni ifodalovchi atama bo‘lib hisoblanadi. Huquqiy tarbiya – jamiyat a’zolari madaniyati va ongiga huquqiy bilimlarni turli ta’sir vositalari orqali uzlusiz singdirib borish jarayonini ifodalovchi tushuncha. Huquqiy tarbiya vositalariga huquqiy targ‘ibot, huquqiy ta’lim va amaliyot, o‘zini o‘zi tarbiyalash kiradi. Huquqiy tarbiya keng ma’noda, jamiyat a’zolarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish, shaxs ongiga uning huquq va burchlarini singdirish jarayonini anglatadi. Huquqiy tarbiya tor ma’noda fuqarolarning huquqiy bilim va madaniy saviyasi darajasini oshirishga xizmat qiladigan usul va vositalarni ifoda etadi. Huquqiy tarbiyaning davlat va jamiyat taraqqiyotida hamda fuqarolik jamiyati asoslarini qurishdagi o‘rni shaxsning, fuqarolarning huquqiy bilimi va ko‘nikmalar darjasи bilan belgilanadi[2].

Biz qanchalik mukammal qonunlar yaratmaylik, qanday islohotlar o‘tkazmaylik, agar fuqarolarimizning huquqiy bilimi, ongi va madaniyati yetarli bo‘lmasa, kutilgan natijalarga erishish mushkul bo‘ladi, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, - Huquqshunos olimlarning bundan bir necha asr avval “Huquqni anglash mas’uliyat hissini rivojlantiradi”, deb aytgan hikmatli so‘zları hech qachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi. Boshqacha aytganda, Konstitutsiya va qonunlarga hurmat, huquqiy ong va madaniyat har bir fuqaroning, har bir mansabdor shaxsning hayot va faoliyat tarziga aylanmog‘i kerak[3].

2019 yil 9 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish

to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni qabul qilinib, ushbu farmonga ko‘ra jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari sifatida aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida “Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!” degan hayotiy g‘oyani mustahkamlash, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsianing muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o‘rgatish belgilab berildi. Ushbu Farmonga ko‘ra, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish “shaxs-oila-mahalla-ta’lim muassasasi-tashkilot-jamiyat” prinsipi bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil etilishi lozimligi belgilandi. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish maqsadida “O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilanishicha, nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari sonini 1000 taga yetkazish, nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o‘quvchilar ulushini 3 barobarga oshirish, yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarini oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan to‘liq ta’minlash, advokatlar sonini kamida 2000 nafarga ko‘paytirish rejalashtirilgan[4].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishning huquqiy asosi bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 56-moddasida “Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to‘ldiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko‘maklashadi”[5], deyilgan. Yoshlarni mustaqillik g‘oyasi ruhida tarbiyalash masalasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ushbu moddada “Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”[6], deb ko‘rsatilgan.

Yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayoni huquqiy tarbiya asosida amalga oshiriladi. Huquqiy tarbiya – bu insonda huquq haqida ma’lumotga ega bo‘lish va huquqiy masalalar bo‘yicha formal bilimlarning oddiy yig‘indisini o‘zida ifodalamay, balki ularga qonunchilikning asosiy qoidalarini ongli ravishda o‘zlashtirish, olingan bilimlarni shaxsiy ishonchga aylantirish, qonunda belgilanganlarga qat’iy riosa qilish, keyinchalik uni bajarishni ichki ehtiyoj va odatga aylantirish kabilarni ham o‘zida ifodalaydi. Huquqiy bilimlar huquqiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari, internet orqali yoshlarga yetkazilib, ularda huquqiy ong

va madaniyatning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy tarbiya vositasida jamiyat va davlat manfaatlariga javob beradigan yuridik tamoyil va talablar ishlab chiqiladi, ushbu tamoyil va talablar yoshlar huquqiy ongi va madaniyati shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, shu bilan bиргаликда yoshlarni mustaqillik g'oyasi ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda huquqiy ong, huquqiy madaniyatni shakllantirish, ularning huquqiy bilimini chuqurlashtirish ularni mustaqillik g'oyasi ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. Xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini yoshlar ongida shakllantirish orqali ularda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish yoshlarni mustaqillik g'oyasi ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Yoshlarda huquqiy savodxonlikni oshirish, ularda huquqiy bilim, huquqiy ong va madaniyatni yanada rivojlantirish yoshlarni mustaqillik g'oyasi ruhida tarbiyalashda dolzARB ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlarning huquqiy bilimini takomillashtirish maqsadida ta'lim-tarbiya muassasalarining barcha bosqichlarida huquqiy ta'lim, tarbiya, huquqiy ma'rifiy tadbirlar o'tkazish masalasiga e'tibor kuchaytirilmoqda. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalari muhim o'rin tutib kelmoqda.

Hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan foydalanish masalasi ham bugungi kunda dolzARB ahamiyatga ega bo'lmoqda.

O'zbekistonda "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 09.01.2019 yildagi PF-5618-sون Prezident Farmoniga asosan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida Adliya vazirligi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi Davlat organi etib belgilangan. Shuningdek, farmon bilan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish" konsepsiysi qabul qilinib, uning asosiy vazifa va maqsadlari, asosiy yo'nalishlari ko'rsatilgan va Konsepsiyanı samarali amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan. "Yo'l xaritasi"ga 88 ta band kiritilgan bo'lib, barcha sohalarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan hamda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish "shaxs - oila - mahalla -

ta’lim muassasasi - tashkilot - jamiyat” prinsipi bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil etilishi nazardautilgan[7].

Bugungi kunda O‘zbekistonda aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishi, mustahkam irodali, o‘z huquqlarini biladigan va qonunlarni hurmat qiladigan, huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay oladigan, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan va huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz munosabatda bo‘ladigan fuqarolarni tarbiyalashning keng qamrovli muntazam tizimini yaratish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida «Jamiyatda qonunga hurmat ruhini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!» degan hayotiy g‘oyani mustahkamlash[8], masalasi ham bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan masaladir. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish masalasi ham bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish, ularni sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardor qilish, qonunlarga kiritilayotgan o‘zgartirishlar va yangiliklar haqida ularga ma’lumot berib borish yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Jamiyat hayotida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish qonun ustuvorligini ta’minalash va qonuniylikni mustahkamlashning muhim shartlaridan biridir.

Yoshlarni mustaqillik g‘oyasi ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga milliy g‘oya, milliy mafkura, milliy ma’naviyatning asosiy tushuncha va tamoyillarini, ularning huquqiy asoslarini singdirish, yoshlarda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash, milliy g‘urur va iftihor tuyg‘ularini shakllantirish, ularga tegishli qonun va qonunosti hujjatlarini yanada takomillashtirish yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishiga, huquqiy tarbiyaning takomillashishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim jihatlardir.

Foydalanimgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat. https://sirdaryo-mamuriy.sud.uz/huquqiy_ong_va_huquqiy_madaniyat/
2. Huquqiy madaniyat. Huquqiy ong. Huquqiy tarbiya.
<https://oyina.uz/kiril/teahause/2816>
3. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezoni // Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. Toshkent, O‘zbekiston, 111-112 betlar.

4. O‘zbekiston: yuksak huquqiy ong va huquqiy madaniyat-rivojlanish garovi.
<https://www.uzembassy.uk/news/1166?language=uz>
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, O‘zbekiston, 2023 yil, 24 bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, O‘zbekiston, 2023 yil, 30 bet.
7. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish yo‘lida.
<https://samarqand.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=35435>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” 09.01.2019 yildagi PF-5618-son. <https://lex.uz/ru/docs/4149765>